

**Nasibjon Karimov**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Gumanitar fanlar kafedrası assissentı

**HADIS VA HIKMATLARDAN TARBIYA JARAYONIDA  
FOYDALANISH VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDA  
QO'LLANILISHI**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ХАДИСОВ И МУДРОСТИ В  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ  
THE USE OF HADITHS AND WISDOM IN THE EDUCATIONAL  
PROCESS AND THEIR APPLICATION IN THE EDUCATIONAL  
PROCESS**

**Annotatsiya**

Hadis ilmining paydo bo'lishini Payg'ambar alayhissalomning vafotidan bir asr o'tgandan keyin bilan bog'lash to'g'ri bo'ladi. Chunonchi Payg'ambar hayot vaqtlarida uning so'zlari-yu, qilgan ishlarini avval boshda faqat eshitish va mushohada qilish bilan chegaralangan bo'lsa, so'ngroq ularni naql etib rivoyat qilina boshlandi. Bu insonlarning ma'naviy olami uchun katta ozuq bo'ldi. Payg'ambardan hadis eshitgan sahobalar ham har xil sharoitda bo'lganlar-qay birlari ko'proq, boshqalari kamroq eshitganlar. Bu hol esa naql va rivoyatga ehtiyojning oshishiga sabab bo'lgan.

**Аннотация**

Правильно было бы связать возникновение хадисоведения с столетием после смерти Пророка. Ибо Пророк при жизни его слова и поступки сначала ограничивались лишь слухом и наблюдением в голове, а потом стали пересказываться. Это стало большой пищей для духовного мира людей. Сподвижники, которые слышали хадисы от Пророка, также находились в разных обстоятельствах-одни слышали больше, другие меньше. И это

обстоятельство привело к увеличению потребности в повествовании и повествовании.

### **Annotation**

It would be correct to associate the emergence of the science of Hadith with a century after the death of the Prophet. And when the Prophet chunun (peace be upon him) said to him during his lifetime, what he had done was first limited to hearing and observing only in the head, then it began to be narrated to narrate them. This has become a great weight for the spiritual world of people. The companions who heard hadith from the prophet were also in different conditions- which one heard more and the other less. This was the reason for the increased need for narration and narration.

**Kalit so'zlar:** islom dini, payg'ambarlar, hadis, hadisshunoslik, sahobalar, tobeinlar, roviy, sanad, musnad.

**Ключевые слова:** ислам, пророки, хадисы, Хадисоведение, сподвижники, подчиненные, рассказчик, санад, Муснад.

**Keywords:** Islam, prophets, Hadith, Hadith studies, sahabas, tobeins, roviy, sanad, musnad.

**Kirish.** Payg'ambar alayhissalom vafotlaridan keyin, sahobalar islom diniga kirgan yangi-yangi mamlalatlarga kengayib, yoyilib ketgach, Payg'ambar hadislarni bilishga bo'lgan ishtiyoq va zarurat tobora osha boshlagan. Yillar o'tishi bilan bu ehtiyoj brogan sari kuchayib xilma-xil shar'iy ahkomlarni bilish va Qur'oni karim mazmunlarini ma'nan idrok etib chuqur anglashga ehtiyoj kuchayadi. Mana shu sabablarga ko'ra hadislarni izlab topish, ularni aniqlash talabida turli o'lkalarga har xil safarlar va rihlatlar ko'payadi. Vaqt o'ta borishi bilan hadis roviylarining bisyorligidan ularni aniq bilish, sanadini tekshirib ko'rish, ular o'rtasidagi tafovut va farqlarning qaysinisi to'g'riligiga ishonch hosil qilish kabi bir qator masala va bahsli holatlar paydo bo'ldiki, bularni o'rganadigan maxsus ilm-- hadis ilmlari vujudga keldi. Hadis ilmining barcha uchun tushunarli va ravon

bo'lishi biroz qiyinroq bo'lganligi uchun, hamma ham uni birdek tushunib, to'g'ri qabul qilishga qiynalgan holatlar ko'paygani bois,

**--Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literatura review).** Muhammad (s.a.v) vafotidan keyin uning so'zlari og'zaki tarzda yetkazilgan. Islom an'analariga ko'ra, ikkinchi xalifa Umar ibn al-Xattob barcha hadislarni bir jildga jamlash ishlarini boshlagan, ammo „Qur'on musulmonlar tomonidan e'tiborsiz qolishidan qo'rqib“ bu harakatdan voz kechgan (Muhammad (s.a.v) so'zlariga ko'ra). Zubayr Siddiqiy).

Umaviylar xalifasi Umar ibn Abdulaziz (umar II, milodiy 717-720 yillarda hukmronlik qilgan) ham barcha hadislarni to'plashga harakat qila boshladi. Hadislarni o'rgatish va to'plash uning musulmon jamiyatining ma'naviy hayotini yangilash rejasining bir qismi edi. U fiqh o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlagan, badaviy qabilalariga o'qituvchilar yuborgan, Hijozda haftalik hadis ma'ruzalarini buyurgan, Misr va Shimoliy Afrikaga hadis olimlarini yuborgan (Muhammad Zubayr Siddiqiyga ko'ra).

Umar (r.a) Madinaning buyuk olimi Abu Bakr ibn Hazmga Umar ibn al-Xattobning barcha hadislarini, xususan, Oisha roziyallohu anho rivoyat qilgan hadislarni yozishni buyurdi. U bu hadislarni Umaviylar imperiyasi bo'ylab tarqalgan kitoblarda to'plagan. Garchi bu kitoblar bugungi kunda yo'qolgan bo'lsa-da, Ibn an-Nadimning sharhlari ularning fiqh kitoblari, masalan Imom Molikning Muvattosi, birinchi yirik hadislar to'plami tuzilganligini ko'rsatadi. Imom Molikning o'zi, ehtimol, Umar (r.a) buyurgan ilk hadis kitoblardan birinchisini yozgandir.

Hadisshunoslikda sahih bo'lmagan hadislarning ko'payishi sodir bo'lganidan keyin eng mashhur hadis to'plovchisi va "ilm al-hadis" amaliyotchisi Muhammad al-Buxoriy tomonidan 16 yoshdan kattaroq vaqtida 600 000 ga yaqin yig'ilgan hadislar tufayli rivojlandi. Hadis ilmining taraqqiyot bosqichlari haqida to'xtalsak, quyidagilarni qayd qilish lozim bo'ladi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Hadis\\_ilm](https://uz.wikipedia.org/wiki/Hadis_ilm)

## **-- Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).**

**1. Payg'ambar alayhissalom davrida hadis ilmi.** Bu davrdagi hadis ilmi, yuqorida qayd etilganidek, sahobalarni Payg'ambardan eshitgan hadislar va uning holatlarini mushohada etganlari bilan belgilanadi. Keyin ular (sahobalar) g'oyib bo'lganlarga u hadislarini yetkazganlar. Shu boisdan ham bu dastlabki bosqichda hadis ilmi rivoyat, yodda saqlash (hifz) va g'oyiblariga yetkazish kabi xususiyatlarga ega bo'lgan.

**2. Sahobalar davrida hadis ilmi.** Bu davr, asosan Payg'ambar vafotlaridan keyin boshlanadi, chunki shu paytdan boshlab hadis rivoyat qilishga alohida talab paydo bo'ladi va avvalroq zikr qilganimizdek, shu maqsad yo'lida boshqa shahar va mamlakatlarga safarlar ham boshlanadi. Ayni vaqtda sahobalar katta e'tibor bilan rivoyat qilinadigan hadislariga biror xato voqe' bo'lishdan ham ogoh bo'la boshladilar. Chunki bu xususda Payg'ambar alayhissalomning "**kimki menga nisbatan yolg'onni so'zlasa, shubhasiz u jahannamdan joy oladi**", degan ochiq-oydin hadislar ham bor edi. Darvoqe rivoyatning to'g'ri (haqiqat) ekanligi, uning shartlari, xillari, ahkomlari, roviylarning holatlariyu sharoitlariga doir hadis ilmidagi turli-tuman masalalarni tadqiq qiladigan maxsus soha bo'lib, uni **ilm ud-diroya** deb ataladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ana shu paytdan e'tiboran roviylarning rivoyatlarini aniqligi, ular Payg'ambarni ko'rganlari yoki undan bevosita eshitganligi haqida shohidlarni talab qilish, bu haqda hatto qasam ichirish kabi masalalar ko'tarila boshladi. Bunga qo'shimcha rivoyat qilinadigan hadisning matnini tadqiq etishga ham alohida e'tibor berildi. Bu hol keyinchalik hadisshunoslikda matnning tanqidiy (ilmiy) tarzda o'rganish (ya'ni **naqd al-matn**) deb ataladi. Mazkur holatlarda matnning aniqlashda islom dini asoslari-Qur'oni karim oyatlari yoki boshqa shu mavzuga dahldor hadislariga asoslanib, yetarli dalil va isbotlarga tayangan holda xulosa chiqarilardi. Mana shu jarayonda sahobalar Payg'ambar alayhissalomdan hadislar rivoyat qilishlik naqadar katta mas'uliyatni

va ayni vaqtda g'oyatda muhim va hatarli ekanligini angladilar. Chunki hadislarini ishonchli, to'g'ri rivoyat qilmay uni xato yoki yolg'on, noto'g'ri holda keltirilishi jamiyat uchun muhimligi ayon bo'ldi. Halol va harom tushunchalari, hamda boshqa shar'iy ahkomlarni to'g'ri talqin qilish uchun endi sanad zarurati ham tug'ildi. Bunga ayniqsa, musulmonlar orasida har xil siyosiy fitnalar va mojarolar paydo bo'la boshlagach, tobora ehtiyoj kuchaya boshladi. Bu masalani aniqlash uchun boshqa shaharlarga borishlar ham avj olaboshladi. Hatto bitta hadisni aniq bilish uchun qanchadan-qancha masofa, cho'li-biyobonlarni bosib o'tishga to'g'ri keladi. Masalan, Payg'ambar alayhissalomning suhbatida necha martalar bo'lib undan ko'pdan-ko'p hadislar eshitgan Abu Ayub al-Ansoriy Madinai Munavvaradan atigi bitta hadis eshitish uchun Misrga, Aqaba ibn Omir huzuriga borgan va o'sha hadisni eshitgach, yana uloviga minib o'z shahri Madinaga qaytib kelgan. Hijriy ikkinchi asrdan boshlab, sahobalar davri tugab hadislarini ham matn, ham sanad jihatidan chuqur o'rganib tadqiq etishga ehtiyoj yanada kuchaydi. Bu masala ayniqsa islom olamida turli-tuman firqalar (guruhlar) va mazhablar paydo bo'lgandan keyin yanada katta ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda hadisshunoslikda jarh va ta'diyl ilmi paydo bo'lib, u roviylarning holatlarini tadqiq etib ular aytganlarini qabul qilish yoki rad etishni o'rganardi. Hadis roviylarining tarixlari va ularning to'liq tarjimai hollarini o'rganish bilan shug'ullanadigan olimlar paydo bo'lib, bu sohada alohida asarlar yarata boshladilar.<sup>2</sup>

Hadislar Qur'oni karimdagi oyatlarni tushuntiradi, sharoitga tatbiq etadi. Shunga ko'ra ular o'z ahamiyati jihatidan Qur'oni karimdan keyingi eng muhim qo'llanmalardir. Hadislarini yig'ish payg'ambarimiz davrlaridan boshlangan. Lekin vaqt o'tishi bilan ularni saralash, ishonchlilarini ishonchsizlaridan ajratib olish qiyinlashib borgan. Islomni obro'sizlantirish, musulmonlarni chalg'itish uchun uning dushmanlari soxta hadislar to'qib tarqatganlar. Shuning uchun bu hadislarining kim tomonidan aytilganligiga va ularning shaxsiga alohida e'tibor berilgan. Hadisshunoslik degan fan hadislarining «sahih» (ishonchli)larini

<sup>2</sup> <http://www.fikr-uz.narod.ru/b/11.html>

«nosahih» (ishonchsiz)laridan ajratish bilan shug'ullangan. Payg'ambarimiz so'zlari – hadislar roviylardan yig'ilgan. «Roviy» ma'lumot beruvchi, aytuvchidir. Roviylar, asosan, ikki xil bo'lgan: sahobalar, tobeinlar. Sahoba deb payg'ambarimizni ko'rgan va u kishi bilan suhbatda bo'lgan izdoshlariga aytilgan. Tobeinlar esa payg'ambarimizni emas, sahobalarni ko'rib, ulardan eshitganlarini aytuvchilardir. Hadis ikki qismdan – sanad va matndan tashkil topgan. Sanad – payg'ambarimiz so'zlarining qachon, qanday sharoitda, kimlar huzurida aytilganligi hujjati bo'lsa, matn uning mazmunidir. Imom Buxoriy mana shunday hadis ilmining Buxorodan yetishib chiqqan va butun dunyoga shuhrat taratgan allomasi edi. U kishining hayot yo'llari ham ibratlidir.<sup>3</sup> Talabalarda Yassaviy hikmatlarini o'rganish orqali bir-biriga mehr- muhabbat, muruvvat va oqibat, saxiylik, saxovat diyonat, qanoat, himmat, adolat, sabr- toqat, mehribonlik, rostgo'ylik fahm - farosatlilik, ziyraklik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar rivojlanib borganligiga guvoh bo'ldik. Yassaviy yoshlarga murojaat qilib, bilim egallash oson emasligini, buning uchun esa yillar davomida har qanday qiyinchiligu mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o'z ustida qunt bilan ishlash kishidan irodali bo'lishni talab qiladi. Shunday xulqqa ega bo'lgan Shaxsgina bilim va fan chmqqilarini yillar davomida egallab olishini ta'kidlaydi.<sup>4</sup>

**--Xulosa va takliflar (Conclusion/ Rekommedations)** Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida, o'tilayotgan mavzularga mos bo'lgan hikmatli so'z, aforizmlar va hadislardan foydalanish yaxshi samara beradi. deya ko'rsatiladi. Hadislar tarbiya manbai hisoblanadi. Hadislarni eshitib, tanishish,ko'rish, yodlash, mazmunini anglash, o'rganish orqali hayotimizda hadislardan ibrat olgan holda,ularni amalda hayotimizda qo'llab, ko'p o'zimizni tarbiyamizdagi kamchiliklarni tuzatishimizga yordam beradi. Undan tashqari o'z ona Vatanimizga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik,

<sup>3</sup> 5-sinf adabiyot. S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2015

<sup>4</sup> Sayyora Muxammadiyeva. Ahmad Yassaviyning ta'limiy axloqiy qarashlaridan yosh avlod tarbiyasi. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 2 / April 2023

do'stlik, oliyjanoblik, rahmshafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.<sup>5</sup>

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Hadis\\_ilm](https://uz.wikipedia.org/wiki/Hadis_ilm)
2. <http://www.fikr-uz.narod.ru/b/11.html>
3. 5-sinf adabiyot. S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2015
4. <file:///C:/Users/Windows/Downloads/5200>

---

<sup>5</sup> <file:///C:/Users/Windows/Downloads/5200> %D0%A2%D0%B5%D0%BA %D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-12804-1-10-20220224%20(1).pdf